

FARZAND TARBIYASIDA OILA MUHITI VA UNING IJTIMOIIY ONGGA TA’SIRI.

ADPI Xorijiy til va adabiyot yo’nalishi
1-bosqich 101-guruh talabasi M.Omonova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410121>

Annotatsiya: Mazkur maqolada farzand tarbiyasida ota-onalarning badiiy va ma’naviy hamda diniy adabiyotlarga tayangan holda yetuk shaxsni shakllantirishdagi o’rni yoritiladi. Bundan tashqari, gender stereotiplarining bolalar ongiga hamda ularning ijtimoiy tasavvuri va qadriyat tizimiga ko’rsatadigan ta’siri ilmiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinib, unda oila muhiti, milliy meros, shuningdek, adabiy manbalar orqali farzandni ma’naviy barkamol hamda yetuk shaxs qilib tarbiyalash zarurati asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: farzand tarbiyasi, oila muhiti va psixologiyasi, ijtimoiy ong, ma’naviy qadriyat.

Аннотация: В данной статье освещается роль родителей в формировании зрелой личности ребёнка на основе художественной, духовной и религиозной литературы. Кроме того, с научно-психологической точки зрения анализируется влияние гендерных стереотипов на сознание детей, а также их воздействие на социальные представления и систему ценностей. В статье обосновывается необходимость воспитания ребёнка как духовно богатой и зрелой личности через семейную среду, национальное наследие, а также посредством литературных источников.

Ключевые слова: воспитание детей, семейная среда и психология, общественное сознание, духовные ценности.

Abstract: This article highlights the role of parents in shaping a mature personality by relying on artistic, spiritual, and religious literature in the upbringing of children. In addition, the influence of gender stereotypes on children’s consciousness and their impact on social perceptions and the system of values are analyzed from a scientific and psychological perspective. The article also substantiates the necessity of educating a child as a spiritually mature and well-developed individual through the family environment, national heritage, as well as literary sources.

Keywords: child upbringing, family environment and psychology, social consciousness, spiritual values.

Bugungi rivojlanib borayotgan taraqqiyotimizda farzand tarbiyasi va ijtimoiy ong ta’siri dolzarb mavzulardan biriga aylanib bormoqda va buning sababi hamda yechimlariga juda ko’p fikrlar bildirilmoqda.

Birinchi navbatda farzand tarbiyasiga to’xtaladigan bo’lsak, farzand tarbiyasi nafaqat oilada, balki jamiyatda ham muhim ahamiyat kasb etadigan omil hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti avvalambor oiladan boshlanadi. Oila – bu shaxs kamolotining birinchi va eng muhim maskanidir. Farzandning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari, jamiyatga munosabati aynan oilada shakllanadi. Shuning uchun, farzandga tarbiya berishda ota-onaning ro’li juda muhim hamda beqiyosdir, ayniqsa onaning ro’li. Negaki, ona otadan ko’ra ko’proq vaqt o’tkazadi va shu mobaynida suhbatlashadi. Shuningdek, bolani go’zal xulqli, ilmi, odobli, farosatli qilib tarbiyalashi, bundan tashqari ular o’z ota-bobolariga, o’z tarixi vatani, ona tiliga, millat ulug’lariga, shuningdek, muqaddas Islom dini an’alariga sodiq bo’lib tarbiyalashiga ahamiyat bermoqligi lozim. Hamda bola tarbiyasidagi yana bir muhim jihatlardan biri – bu oilaviy muhit hisoblanadi. Chunki, farzand ota-onasi bir-birlariga qanday qilib munosabat bildiryotganligiga va qanday munosabatda bo’lyotganligiga e’tibor qaratadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz:” Qush inida ko’rganini qiladi”

– deb bejizga aytishmagan. Bundan kelib chiqadiki, inson, ayniqsa, bola qanday muhitda tarbiya olsa, o’sha odat va xulqlarni takrorlaydi. Ota-onaning ma’naviy saviyasi, tarbiya uslubi va qadriyatlarga munosabati farzandning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu borada Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning “...birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O’zbekiston uchun eng katta investitsiya bo’lgan ta’limni qo’llab-quvvatlashga qaratamiz”. “Najot - ta’limda, najot -tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi...” (2) degan fikrlari yorqin misol bo’la oladi. Zero ta’lim tarbiyasiz amalga oshmaydi. Bundan tashqari, ikkinchi dolzarb mavzuyimiz bo’lgan, ya’ni oila va jamiyat muhitidagi ijtimoiy ong ta’siriga to’xtalib o’tmoqchiman. Birinchi navbatda ong haqida tushuncha bermoqchiman, ong - bu anglash demakdir. Insonning ongi tevarak-atrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tashkil topadi. Endi ijtimoiy ongga keladigan bo’lsak, u odamlarning jamiyatdagi holatlar, hodisalar, qoidalar, qadriyatlar va boshqalar haqida bilim, tushuncha hamda sezgiga ega bo’lishi tushuniladi. Bu shaxsning o’zini jamiyat bilan bog’liq his qilishi, atrofdagi ijtimoiy muhitni idrok eta olishi va bundan tashqari unga munosabat bildira olishini anglatadi. Ijtimoiy ong ta’siri deganda har bir insonning o’z tushunchalari bo’ladi. Mening nazarimda – bu bir kishi o’zini boshqalar bilan solishtirishi va ular qilgan ishlarini qabul qilishi yoki o’zgartirishi. Shuningdek, jamiyat yoki guruhning odatlari, qoidalari odamning xatti-harakatlarini shakllantiradi. Shu o’rinda bunga bir misol keltirib o’tmoqchiman. Haqiqatdan ham jamiyat va guruhlardagi odatlar ham inson ongiga, albatta, ta’sir ko’rsatadi. Men bunga o’smirlik davridagi o’smir bolani misol tariqasida olmoqchiman. Buni misol qilib olganligim sababi shundaki, agarda o’smir bola yaxshi insonlar jamoasiga qo’shilsa, u o’zida bir qancha yaxshi xislat va xususiyatlarni uyg’otadi hamda buni namoyon etish darajasi ham ortadi. Lekin, bola aksincha, yomon odamlar guruhiga qo’shilib qoladigan bo’lsa, u bir necha yomon odatlarni o’zlashtiradi. O’zini yaxshi tomoni bilan katta, ya’ni yetuk shaxs bo’layotganligini atrofdagilarga namoyon eta olmasa, u kattalar qilayotgan nojo’ya ishlarni qilib ko’radi. Misol tariqasida ichish, chekish va xatto o’zidan kichik deb hisoblaganlarga katta ekanligini ko’rsatib qo’yish uchun kuch ishlatishi ham mumkin. Negaki, o’smirlik davri bolalarning kuchga to’lgan davri hisoblanadi. U o’ylaydiki, shu yo’l orqali boshqa bolalar uni zo’r deb o’ylashlarini va o’zini katta deb hisoblashlarini xohlashadi. Bunday holat va vaziyatlar mening nazlimda yoshligidan boshlab ota-onasi chizgan chizig’idan chiqmagan hamda o’zini mustqil fikri bo’lmagan bolalarda ko’p uchraydi. Bundan tashqari, odam jamiyatdagi voqealar hamda hodisalarni kuzatib, ongli ravushda qarorlar qabul qiladi. Tepadadi yozilgan gaplarga nazariya berib o’tsak, bu nazariya’’ Bo’ysunish, identifikatsiya va ichki qabul qilish – bu munosabat o’zgarishining uch jarayonidir’’. (Kelman,1958, 53-bet (3)). Bu nazariya bilan olim shuni ta’kidlab o’tmoqchiki, odamlar boshqalar ta’siriga uchrashini hamda bu uch turdagi ta’sir etishini aytib o’tgan. Shuningdek, ular: guruhga moslashish, atrofdagi fikrni ichki qabul qilish hamda oxirgisi boshqalar talabiga bo’ysunishdir.

Xulosa qilib aytganda, farzand tarbiyasida oila muhiti muhim va hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Oila – insonning birinchi ijtimoiy maktabi bo’lib, aynan shu muhitda bolaning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvori shakllanadi. Ota-ona va oila a’zolarining o’zaro hurmati, mehr-muhabbati, ma’naviy qadriyatlarga sodiqligi farzandning ijtimoiy ongining shakllanishiga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Agar oilada sog’lom ma’naviy muhit, to’g’ri tarbiya usullari va ijobiy munosabatlar mavjud bo’lsa, farzand jamiyatda faol, mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxs sifatida voyaga yetadi.

Shuningdek, oiladagi muhit bolaning ijtimoiy muammolarni tushunishi, boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati hamda jamiyat qoidalariga hurmat bilan qarashini shakllantiradi. Shu bois, ota-onalarning farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashishi va sog’lom ijtimoiy muhit yaratishi jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda bola ko’pincha

kattalarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qiladi. Shu sababli ota-onaning shaxsiy namunasi tarbiyada katta rol o’ynaydi. Bu fikrni Albert Bandura ham ta’kidlab, bolalar ko’proq kuzatish va taqlid orqali o’rganishini ko’rsatadi.

Tavsiyalar:

1. Ota-onalar oilada sog’lom ma’naviy muhit yaratishga alohida e’tibor berishlari kerak.
2. Farzand bilan ochiq muloqot qilish, uning fikrini tinglash va qo’llab-quvvatlash muhimdir.
3. Bolalarga kichik yoshdan boshlab ijtimoiy qadriyatlar, hurmat va mas’uliyat tuyg’usini singdirish zarur.
4. Ota-onalar o’z xatti-harakatlari bilan farzandlariga ijobiy namuna bo’lishlari lozim.
5. Farzandlarning kitob o’qishi, ilm olishga qiziqishi va ijtimoiy faol bo’lishini rag’batlantirish kerak.
6. Oilada o’zaro hurmat, mehr va ishonch muhitini mustahkamlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonxon Alimov – Oilada farzand tarbiyasi. Toshkent 2014, 51-bet.
2. Albert Bandura. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. — 1–247-betlar. (Nazariyaning asosiy qismi 22–28-betlarda yoritilgan).
3. Herbert C. Kelman. Compliance, Identification, and Internalization: Three Processes of Attitude Change // Journal of Conflict Resolution. — 1958. — Vol. 2, No. 1. — 51–60-betlar.
4. Abu Nasr Farabi. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993. — 15–30-betlar. Oilada o’zaro hurmat, mehr va ishonch muhitini mustahkamlash zarur.
5. Abdulmadjidova, M. (2021). Muloqot–Bola Psixik Rivojlanishining Muhim Omili. **BARQARORLIK VA YETAKCHI**
6. qizi Xabibullayeva, S. S., & qiz Abdulmadjidova, M. D. (2023, January). **TEZKOR QAROR QABUL QILISH-HOZIRGI ZAMON MUHIM TALABI**. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 45-49).
7. Abdulmadjidova, M., & Sattarova, I. M. (2021). O’smirlar o’rtasidagi nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda hamkorlik masalalari. *Science and Education*, 2(12), 602-608.
8. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta’lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O ‘Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. *TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 5-9.
9. APA, M. Abdulmadjidova (2024). **ILK O ‘SPIRINLIK DAVRIDAGI O ‘QUVCHILARNI PSIXOTIPLARIGA QARAB KASBGA YO ‘NALTIRISH ISHLARINI OLIB BORISH NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI**. *Inter education & global study*, (10), 412-418.
10. Abdulmajidova, A. M. (2024). **O’QUVCHILARDA KASBIY KO’NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI**. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(5), 149-151.